

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MOTIVATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Qo'qon universiteti Andijon filiali
Pedagogika, psixologiya va jismoniy
madaniyat kafedrası dotsenti Xasanova
Saida Ganijonovna

Qo'qon universiteti Andijon filiali
masofaviy ta'lim Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi Usmonova
Shahodatxon Dilshodbek qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qishga bo'lgan motivatsiyani shakllantirishning psixologik omillari tahlil qilingan. Motivatsiya jarayoniga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar, o'quvchilar faoliyatida emotsional muhit va rag'batlantirish vositalarining roli yoritilgan. Shuningdek, maktabga moslashuv davri, o'quvchilarning psixologik xususiyatlari hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning motivatsiyani kuchaytirishdagi ahamiyati ilmiy asoslangan. Maqola boshlang'ich ta'lim pedagoglari uchun amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar. Motivatsiya, boshlang'ich ta'lim, psixologik asoslar, o'quvchilar faoliyati, rag'batlantirish, ichki motivatsiya, emotsional muhit.

Психологические основы мотивации учащихся начальной школы

Аннотация. В статье анализируются психологические факторы формирования мотивации к обучению у учащихся начальной школы. Выделены внутренние и внешние факторы, влияющие на процесс мотивации, роль эмоциональной среды и стимулов в деятельности учащихся. Научно обоснованы период адаптации к школе, психологические особенности учащихся, значение личностно-ориентированного подхода в повышении мотивации. Даны практические рекомендации учителям начальной школы.

Ключевые слова. Мотивация, начальное образование, психологические основы, активность учащихся, поощрение, внутренняя мотивация, эмоциональная среда.

Psychological foundations of motivation in primary school students

Abstract. This article analyzes the psychological factors of the formation of motivation for learning in primary school students. The internal and external factors affecting the motivation process, the role of the emotional environment and incentives in the activities of students are highlighted. Also, the period of adaptation to school, the psychological characteristics of students, and the importance of a person-centered approach in enhancing motivation are scientifically substantiated. The article contains practical recommendations for primary school teachers.

Keywords. Motivation, primary education, psychological foundations, student activity, encouragement, intrinsic motivation, emotional environment.

Kirish.

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimining eng dolzarb masalalaridan biri-o'quvchilarda o'qishga bo'lgan barqaror motivatsiyani shakllantirishdir. Ayniqsa boshlang'ich sinfda motivatsiya yetarli darajada rivojlanmasa, keyingi ta'lim bosqichlarida o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan munosabati sustlashishi mumkin. Motivatsiya o'quvchilarni faol ta'lim jarayoniga jalb etadigan, ularda o'z-o'zini anglash, o'z ustida ishlash ehtiyojini kuchaytiradigan psixologik mexanizm sifatida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli boshlang'ich ta'limda motivatsiyani shakllantirish o'qituvchining eng asosiy pedagogik vazifalaridan biridir.

Tadqiqot maqsadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qishga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish jarayonining psixologik asoslarini o'rganish, motivatsiyaga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va bu jarayonni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot dolzarbligi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxs sifatida shakllanishning muhim bosqichida turadi. Ularning bilishga bo'lgan ehtiyoji, qiziqishi, mustaqil fikrlash ko'nikmalari aynan shu davrda rivojlanadi. Biroq, o'quv jarayonida

motivatsiya yetarli bo'lmasa, bilimlarni o'zlashtirish jarayoni sustlashadi, faol ishtirok pasayadi. Bugungi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, o'yin texnologiyalari, interfaol metodlardan foydalanish zaruriyati ortib borayotgani motivatsiyaning mazmun-mohiyatini chuqur o'rganishni talab etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida motivatsiyani shakllantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar O'zbekiston va xorijda keng tadqiq etilgan bo'lib, mavjud manbalar mazkur mavzuning nazariy va amaliy jihatdan dolzarbligini tasdiqlaydi. O'zbekiston olimlari orasida Shohida Ibrohimova tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda o'quvchilarning motivatsion xususiyatlari, ularning psixologik ehtiyojlari va o'quv jarayonida rag'batlantirishning ahamiyati chuqur tahlil qilingan.

Shuningdek, Farangiz Ahmatovaning ishlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining motivatsiyasini kuchaytiruvchi pedagogik metodlar, o'qituvchining kommunikativ yondashuvi va o'quv jarayonidagi shaxsiy rivojlanish omillari o'rganilgan. Dildora Sharapova va Setora Kattabekova tadqiqotlarida esa motivatsiyani oshirish uchun qo'llaniladigan psixologik mashg'ulotlar, ijobiy emotsional muhit va o'yin texnologiyalarining amaliy ta'siri asoslab berilgan. O'zbekiston ta'lim tizimi bo'yicha eng zamonaviy tadqiqotlardan biri — Muhayyo Baxtiyorovaning “o'quvchi markazli yondashuv va ichki motivatsiya” o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan ishidir; unda ayniqsa individual yondashuvning o'quvchida bilishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirishi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Xorijiy adabiyotlar ham mazkur mavzuning jahon miqyosida qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi. Masalan, Agatha Puri Christidamayani va hamkorlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda “problem-posing” (muammo qo'yish) modeli o'quvchilarning o'qishga nisbatan qiziqishini, faolligini va mas'uliyatini oshirishi aniq dalillar bilan ko'rsatib berilgan. Bu yondashuv o'quvchini faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki faol fikrlovchi va savol beruvchi shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi. Wan Chong Choi va Iek Chong Choi tomonidan 2024-yilda o'tkazilgan zamonaviy tadqiqotda esa boshlang'ich bosqichdagi o'quvchilarda “kompyuter fikrlashi”, ta'limga ijobiy munosabat va ichki motivatsiya o'rtasidagi bog'liqlik ko'rib


chiqilgan. Ular Code.org kabi raqamli platformalar yordamida o'qitish motivatsiyani sezilarli darajada oshirishini ilmiy jihatdan asoslab bergan [5].

Mazkur mahalliy va xalqaro tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, motivatsiya shakllanishi ko'plab psixologik, pedagogik va metodik omillar bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston olimlarining ishlarida ko'proq psixologik muhit, o'qituvchi nutqi, rag'batlantirish mexanizmlari va o'yin texnologiyalari yoritilgan bo'lsa, xorijiy tadqiqotlarda innovatsion metodlar, muammo asosida o'qitish, raqamli platformalar va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish orqali motivatsiyani oshirishga e'tibor qaratilgan. Bu ikki yo'nalish bir-birini to'ldiradi va boshlang'ich ta'limda motivatsiyani shakllantirish uchun kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Shu bois mavzu zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlar uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Motivatsiya – bu o'quvchini faoliyatga undovchi ichki ehtiyoj, qiziqish va maqsadlar majmui. Psixologlar fikriga ko'ra, motivatsiya ichki va tashqi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Ichki motivatsiya-o'rganishga bo'lgan tabiiy qiziqish, bilishga ehtiyoj, fikrlashdan zavq olish.

Tashqi motivatsiya-baho, rag'bat, maqtoov, ota-ona va o'qituvchining qo'llab-quvvatlashi.



1-chizma. Motivatsiyaning psixologik mazmuni¹

Boshlang'ich sinfda ichki motivatsiyaning rivojlantirish asosiy vazifa sanaladi, chunki aynan ichki motivatsiya barqaror o'quv faoliyatini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari faol, qiziquvchan, o'yin faoliyati asosiy o'rin tutadigan yosh davrida bo'ladi. Ularning diqqat, xotira, tafakkur kabi bilish jarayonlari hali rivojlanish bosqichidadir. Shu bois, motivatsiya yaratishda o'quvchi yoshiga mos metodlardan foydalanish zarur. O'yin elementlari, qiziqarli vazifalar, rang-barang ko'rgazmali materiallar o'quvchilarning qiziqishlarini kuchaytiradi.

Psixologik tadqiqotlar ko'rsatishicha, ijobiy emotsional muhit motivatsiyaning eng kuchli omillaridan biridir. O'quvchi o'zini qadrlangan, qo'llab-quvvatlangan holatda his qilsa, o'qishga bo'lgan ishtiyoq ortadi. O'qituvchining iliq munosabati, maqtovi, kichik yutuqlarni qadrlashi o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Rag'batlantirish vositalari:

- maqtov;
- baholashning rag'batlantiruvchi tizimi;
- kichik sovrinlar, belgilar;
- ijobiy fikr-mulohazalar.

Bugungi ta'lim jarayonida motivatsiyaning kuchaytirish uchun interfaol metodlar guruhli ishlash, o'yinli topshiriqlar, loyiha faoliyati, kichik musobaqalar samarali hisoblanadi. O'yin orqali ta'lim o'quvchini faol harakatga undaydi, uning diqqatini to'plab, o'rganilayotgan mavzuga qiziqishini oshiradi. Misollar:

- “Aql charxi” o'yinlari;
- rolli o'yinlar;
- kvest-darslar;

¹ Deci, E., & Ryan, R. *Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior*. – New York: Plenum Press, 2017.

-topshiriq asosida o'rganish (task-based learning) [2].

Har bir o'quvchi o'ziga xos qobiliyat, qiziqish va ehtiyojga ega. Motivatsiyani shakllantirishda individual yondashuv muhim:

- o'quvchining qobiliyatiga mos topshiriqlar berish;
- muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini yaratish;
- o'z-o'zini baholashga o'rgatish;
- mustaqil fikrlashni rag'batlantirish[1].

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinfda motivatsiyani shakllantirish – ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim psixologik jarayon. Motivatsiya o'quvchining faolligi, bilishga bo'lgan ehtiyoji va o'z ustida ishlashga bo'lgan intilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda darsni to'g'ri tashkil etishi, o'yinli, interfaol va shaxsga yo'naltirilgan metodlardan foydalanishi lozim. Shuning uchun boshlang'ich sinfda o'quvchilarda motivatsiyani kuchaytirish uchun dars jarayoniga ko'proq o'yin texnologiyalari, qiziqarli topshiriqlar va rag'batlantiruvchi usullarni muntazam joriy etish hamda har bir o'quvchiga individual yondashuvni kuchaytirishni taklif sifatida bermoqdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva, Q. **Boshlang'ich ta'lim psixologiyasi.** – Toshkent: O'zbekiston Milliy nashriyoti, 2020.
2. Hasanboyeva, O. **Bolalar psixologiyasi.** – Toshkent: Universitet, 2021.
3. Vygotskiy, L.S. **Pedagogik psixologiya.** – Moskva: Eksmo, 2018.
4. Deci, E., & Ryan, R. **Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior.** – New York: Plenum Press, 2017.
5. Tolipova, G. **Pedagogik texnologiyalar va motivatsiya.** – Toshkent: Fan, 2019.